

KELAJAKDA KASB TANLASH VA FANZAND TARBIYASIDA O‘QITUVCHING AHAMIYATI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Ibroximov Nodirbek

*Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani 40- maktab ingliz tili
fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kelajakda kasb tanlash jarayoni va fanzand tarbiyasida o‘qituvchining tutgan o‘rni haqida mulohazalar bayon etilgan. Unda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodni ma‘naviy va kasbiy yo‘nalishda shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maktab davrida olingan saboqlar va pedagogning shaxsiy namuna bo‘lishi kelajak kasb tanloviga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi. Ota-onalar, jamiyat va o‘qituvchi hamkorligi muhimligi, bolalarning qiziqishi, qobiliyati va ichki imkoniyatlarini aniqlashda pedagogik yondashuvning o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, fanzand tarbiyasi, o‘qituvchi, ta’lim, kelajak, ma‘naviy tarbiya, ota-ona, yoshlar, rol model, kasbiy yo‘naltirish.

O‘qituvchi bo‘lish va bu kasbning o‘ziga yarasha mashaqqatlarini ko‘rib o‘zim uchun juda katta xulosalar olgan holda o‘z fikrlarimni o‘quvchilar bilan bo‘lishmoqchiman. Biz insonni qanday mashaqqatlar chekkanini yoki zimmasida qancha vazifalar borligini bilish uchun bir kun o‘sha odam bo‘lib yashab ko‘rish kerak ekan. Haqiqatan, har bir inson o‘zidan o‘tgan narsani o‘zi biladi. Hayotning har bir lahzalari bu biz o‘rganishimiz kerak bo‘lgan sirlarni ochib beraveradi. Biz uchun u haqiqatlarni anglash va har bir ishdan kerakli xulolalar olib, ularni o‘z hayotimizga tatbiq etish qolar ekan. Quyida o‘z tajribalarimdan kelib chiqib, o‘z fikrlarimni ba’zi bir misollar orqali ochib berishga harakat qilaman.

Maktabda o‘qib yurgan paytlarim maktab va o‘qituvchilar o‘quvchi hayotida unchalik muhim ahamiyat kasb etmaydi, bu har bir jarayon o‘quvchini o‘ziga bog‘liq deb o‘ylar edim. O‘qiydigan odam o‘ziga kerak bo‘lgan paytda o‘qib amallab oladi va o‘zi uchun kerakli bo‘lgan fanni albatta o‘qiydi, baribir ham maktab bu tizimlashtirilgan bo‘ladi, har xil o‘quvchilar bo‘lganligi sababli sinfda o‘qish uchun yetarlicha sharoit bo‘lmaydi va hammani o‘ziga bog‘liq degan fikrda edim. Bunday o‘ylashim uchun juda ko‘p sabablar bor edi. Masalan, o‘zim qishloq maktabida o‘qiganligim uchun u yerda sharoitlar yetarlicha deb bo‘lmasdi yoki hamma o‘qishga qiziqib raqobat bilan o‘qiydigan atmosfera bo‘lmagani uchun men hamma o‘z maqsadlaridan kelib chiqib tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha baribir o‘zi o‘qishi, maktab unchalik muhim ahamiyat kasb etamaydi degan fikrlar bo‘lar edi.

Lekin hozirgi ish faoliyatimdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, har bir yosh avlod uchun avvalo maktabda asosiy poydevor qurilishi va o'quvchilar maktab hayotidan yoki o'qituvchilardan energiya olib yoki havas qilib o'z yo'nalishlarini tanlashar ekan. Mana bir yildan beri maktabda o'qituvchi sifatida ishlayapman va har xil xarakterli bolalar bilan ishlashga to'g'ri kelyapti va juda ko'p narsalarni tushunishimga sabab bo'lyapti. Ba'zida biz qadriga yetmagan o'qituvchilarga qanchalik muhtoj ekanligimizni endi tushunib yetyapman. Haqiqatdan ham bepul bo'lgan narsani, qadri unchalik ham baland bo'lmasligi yoki yetarlicha e'zozlanmasligiga guvoh bo'ldim. Bekorga bobolarimiz: "Oldingdan oqqan suvni qadri yo'q" deb bejish aytishmagan ekan. O'zimdani kelib chiqib aytadigan bo'lsam 11 yil davomida maktabimdagi malakali va o'z kasbining ustalari bo'lgan insonlardan yetarlicha foydalanib, kerakli bilimlarni olmaganimga mana endi afsuslanyapman. Sababi ustozlarimiz juda ko'p narsalarni o'rgatgan, biz esa ularni qadriga yetmaganmiz.

Bolaning hayotda o'z yo'lini topishi va yetuk bir kadr bo'lib yetishishi uchun maktab ayniqsa boshlang'ich sinfda ta'lim bergan o'qituvchining ahamiyati sezilarli darajada katta ekan. Albatta ota-onaning farzandga bergan e'tibori juda katta ahamiyatga ega. Sababi bola 1-4-sinflar oralig'ida o'qishga bo'lgan qiziqishi ortishi yoki shu fanga bo'lgan qiziqish yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bu holat uchun bir necha misollar bilan yanada yoritib beraman.

Maktabda bir yildan oshiq dars berdim va shu vaqt davomida har bir sinf o'quvchilariga dars berdim va ulardagi turli harakterlarni ko'rdim va ular bilan to'g'ri munosabat qilishga harakat qildim. Men ko'p duch keladigan narsa ba'zi bollarda olib qolish va eslab qobiliyati ancha pasaygani bu ko'p hollarda 5-6-sinf o'quvchilarida kuzatiladi. Bola o'qishni xohlaydi, lekin boshida yetarlicha baza bilan ta'minlanmaganu uchun ular ba'zi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Ya'ni o'zi xohlagan fanni sevib o'rganishni yoki shu fanda yanada ko'proq ma'lumotlar olishni xohlaydi. Biz o'qituvchilar ta'lim jaroyonida o'quvchilarga ko'proq ahamiyatli bo'lishimiz va biz ularning hayotida yaxshigina ahamiyatga ega ekanligimizni bilgan holda chin dildan ishlashimiz kerakligini tushunib yetdim.

Quyidagi yana bir holat ko'p maktablarda kuzatiladi, ya'ni maktablarda fan o'qituvchilarni almashishi ta'lim sifatini tushishiga ta'sir qilib kelmoqda. Maktabga kelgan ba'zi o'qituvchilar ma'lum muddatdan keyin baribir ketish, ma'lum muddatgagina ishlab turish maqsadi bilan o'z kasbiga hurmatsizlik deydimi yoki e'tiborsizlikmi o'zi o'qitayotgan fanga nisbatan yoki bolalar oldidagi burchlarini poymol bo'lishiga olib kelmoqda. Buning natijasida o'quvchilar bazi qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shu o'rinda yana bir misol: o'qituvchini bolalar bilan ishlashi va o'z metodlari bilan o'ziga jalb qilishi o'quvchilar hayotiga yangi bir sahifani olib kirishi mumkin. Maktabda o'qib yurgan paytlarim hamma fanlarni yaxshi o'qishga va yaxshi baho olishga harakat qilar edim. Aniq essimda 6-sinfdan

o‘qishga bo‘lgan qiziqishim va ishtiyoqim yana ham ortgan. Fizika fani o‘qituvchimiz Erkinoy ustozimiz o‘tkan darslar biz uchun biz olam shodliklar olib kelar edi. Bizni sinfda xatto past o‘zlashtiradigan sinfdoshlarim ham shu ustozimizni darslarini intiqlik bilan kutar edi. Sababi oddiy edi: uztoz har bir o‘quvchining ko‘ngliga yo‘l topa olganliklari va har qanday vaziyatda ham qo‘llab-quvvatlashlari hammamizga birdek energiya berar edi. Shu ustozimning darslaridan keyin sinfimizdagi ko‘p o‘quvchilarning rejalari o‘zgargan va biz kamida 9-10 kishi bo‘lib ustozimiz bilan qo‘shimcha darslar qilib shug‘ullanar edik, hammamizda oliy maqsad - Fizika fanini yanada chuqurroq o‘rganish va o‘z sohamizning yetuk mutaxassislari bo‘lish edi. Haqiqatdan ham, o‘sha paytdagi qiziqishlar universitet eshiklariga yetaklab bordi va ustozimiz bergan maslahatlar qo‘llab-quvvatlashlari hamisha o‘qish uchun energiya berar edi.

Nima bo‘lganda ham, har bir o‘qituvchi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni chin dildan bajarsa, o‘quvchilar qalbidan yaxshi joy olsa, har bir o‘quvchi shu ustozdan o‘zi uchun albatta qaysidir bir yaxshi sifatini oladi. Maktab haqiqatdan-da men o‘ylaganimdan-da muhim ahamiyatga ega ekan.

Yana bir narsa – albatta, ustoz o‘qitib olim qilib qo‘ya olmaydi. O‘quvchilar ham yaxshi ustozlarni “etagi”dan tutishi va o‘zi uchun to‘g‘ri xulosa, maslahatlarni olishi lozim. Ustoz deganda, har qaysi inson ko‘nglida hurmat, yuksak ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg‘ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o‘lchab va ado qilib bo‘lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo‘ladi.

Darhaqiqat, har birimiz hayotda qanday muvaffaqiyat va natijalarga erishgan bo‘lsak, bu yutuqlarda ustozlarning beqiyos hissasi borligini doimo minnatdorlik bilan e’tirof etamiz. Ustozlarimiz o‘giti va pand-nasihatlariga amal qilib borishimiz bilan ular oldidagi ilk burchimizni ado qilgan bo‘lamiz.

Haqiqatan ham, **“Ustoz otangdek ulug‘”** deb, ajdodlarimiz bejiz aytishmagan. Chunki, ota farzandni dunyoga keltirgan bo‘lsa, ustoz unga odamiylikdan saboq bergan. Bir mashhur zotdan, nima uchun ustozingizni otangizdan ham ortiq ko‘rasiz, deb so‘rashganda: **“Otam meni jismimni tarbiyalab yerga tushishimga sabab bo‘lgan, ustozim esa ruhimni tarbiyalab ko‘kka yetishimga sabab bo‘ldi”**- degan ekan. Ustozlarimiz hayotda o‘z o‘rnimizni egallashimiz va va yaxshi kasb egasi bo‘lishimiz uchun bizga ko‘prik vazifani bajargan insonlar. Ularni qancha hurmat qilsak, o‘rnak olsak, e’zozlasak shuncha kam.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov, A. (2019). Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: «Ilm Ziyo» nashriyoti.
2. Qurbonov, M. (2021). Kasb tanlash psixologiyasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Karimova, D. & Jo‘rayev, B. (2020). Ta’lim va tarbiyada o‘qituvchining roli. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
4. Xasanov, A. (2022). “Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda pedagogik yondashuvlar”. O‘zDJTU ilmiy axboroti, 2(34), 45-50.
5. UNESCO (2023). Teachers: The Heart of Quality Education. Paris: UNESCO Publishing. <https://unesdoc.unesco.org>